

Islom Abdug'aniyevich Karimovni xotirlab

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti, Mustaqillik asoschisi Islom Abdug'aniyevich Karimovni xotirlab "Suv xo'jaligi tashkil etish va boshqarish" fakulteti Yoshlar Ittifoqining bir Guruh faol Talabalari tashabbusi bilan birinchi prezidentimiz nomidagi muzeysiga tashrif buyurdik. Aynan shu tashrif davomida fakultetimiz birinchi kurs talabalari ham ishtirok etishdi, albatta bunday xotira kunlarida ular nomiga qad rostlagan haykal, hamda muzeylarga tashrif buyurishimiz har birimizning burchumizdir.



Hozirgi kunda mamlakatimizda tubdan yangilanishlar, keskin o'zgarishlar, chuqur o'ylangan islohatlar amalga oshirilmoqda bularning barchasi albatta avallambor xalq manfaati uchun shu o'rinda bitta narsani hech qachon unutmasligimiz kerakki 29 yil oldin manashu kunlarga yetishishimizni oldindan ko'ra bilgan hamda shaxdam qadamlar bilan oldinga qadam tashlagan inson aynan Islom Abdug'aniyevich bo'lgan. U inson Bizga bildirib ketgan Ulkan ishonchini albatta biz Yoshlar oqlaymiz.

**Suv xo'jaligi tashkil etish va boshqarish fakulteti Yoshlar yetakchisi Hayitboy Iskandarov
Institut matbuot xizmati Rahimboy Jumaniyozov**